

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023- yil** yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **646868,7 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022- yilning** yanvar-noyabr oylariga nisbatan **149018,2 ming AQSH** dollariga yoki **29,9 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **646868,7** **+29,9 %**
(2022- y.: **497850,5**)



Saldo

2023- y.: **118593,7**
(2022- y.: **41071,9**)



Eksport

2023- y.: **382731,2** **+42,0 %**
(2022- y.: **269461,2**)



Tovarlarni: **379035,5**



Xizmatlar: **3695,7**



Import

2023- y.: **264137,5** **+15,7 %**
(2022- y.: **228389,3**)



Tovarlarni: **262344,2**



Xizmatlar: **1793,3**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **382731,2** ming AQSH dollariga (**42,0 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **264137,5** ming AQSH dollariga (**15,7 %** ga ko‘paydi).

Hisobot davrida **118593,7** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
(2023- yil yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 166260,9	TSA – 96170,4	TSA – 90145,9	TSA – 41155,1	TSA – 31385,6
Eksport: 28651,7 Import: 137609,2	Eksport: 79880,7 Import: 16289,7	Eksport: 64724,1 Import: 25421,8	Eksport: 39032,8 Import: 2122,3	Eksport: 15079,0 Import: 16306,6
 25,7 %	 14,9 %	 13,9 %	 6,4 %	 4,9 %

Pokiston	AQSH	Polsha	Tojikiston	Latviya
TSA – 23895,8	TSA – 22960,3	TSA – 16615,9	TSA – 16264,3	TSA – 15928,4
Eksport: 22432,1 Import: 1463,7	Eksport: 20107,7 Import: 2852,6	Eksport: 15448,0 Import: 1167,9	Eksport: 15584,2 Import: 680,1	Eksport: 91,9 Import: 15836,6
 3,7 %	 3,5 %	 2,6 %	 2,5 %	 2,5 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **77** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**25,7 %**), Turkiyada (**14,9 %**), Rossiya Federatsiyasida (**13,9 %**), BAAda (**6,4 %**), Qozog'istonda (**4,9 %**), Pokistonda (**3,7 %**) va AQSHda (**3,5 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 96170,4



Rossiya Federatsiyasi – 90145,9



BAA – 41155,1



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	104679,6	87518,3	166260,9
 <i>Eksport</i>	31532,1	13451,4	28651,7
<i>Import</i>	73147,5	74066,9	137609,2
Turkiya	114613,1	125085,4	96170,4
 <i>Eksport</i>	67127,7	96695,1	79880,7
<i>Import</i>	47485,4	28390,3	16289,7
Rossiya Federatsiyasi	72041,5	83969,5	90145,9
 <i>Eksport</i>	40219,3	58723,8	64724,1
<i>Import</i>	31822,2	25245,7	25421,8
BAA	1181,8	914,9	41155,1
 <i>Eksport</i>	403,1	695,6	39032,8
<i>Import</i>	778,7	219,3	2122,3
Qozog'iston	33402,4	25675,3	31385,6
 <i>Eksport</i>	15337,2	11580,1	15079,0
<i>Import</i>	18065,2	14095,2	16306,6
Pokiston	17165,7	12384,4	23895,8
 <i>Eksport</i>	16820,1	12197,3	22432,1
<i>Import</i>	345,6	187,1	1463,7
AQSH	1803,4	4347,0	22960,3
 <i>Eksport</i>	15,6	15,3	20107,7
<i>Import</i>	1787,8	4331,7	2852,6
Polsha	5834,2	11059,0	16615,9
 <i>Eksport</i>	5106,2	9329,8	15448,0
<i>Import</i>	728,0	1729,2	1167,9
Tojikiston	16668,4	4943,3	16264,3
 <i>Eksport</i>	16141,3	2961,2	15584,2
<i>Import</i>	527,1	1982,1	680,1
Latviya	1573,1	347,2	15928,4
 <i>Eksport</i>	62,4	210,1	91,9
<i>Import</i>	1510,7	137,1	15836,6

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
Italiya		2573,1	2589,7	13657,0
	<i>Eksport</i>	0,0	723,4	11154,6
	<i>Import</i>	2573,1	1866,3	2502,4
Eron Islom Respublikasi		11061,4	18529,5	13357,6
	<i>Eksport</i>	8765,8	15283,1	11768,6
	<i>Import</i>	2295,6	3246,4	1589,0
Misr		1494,7	2010,8	11653,2
	<i>Eksport</i>	1475,2	2010,4	11637,3
	<i>Import</i>	19,5	0,4	15,9
Vetnam		735,2	2897,3	10635,8
	<i>Eksport</i>	150,0	2897,1	10508,7
	<i>Import</i>	585,2	0,2	127,1
Qirg'iz Respublikasi		7905,1	20910,1	9588,7
	<i>Eksport</i>	6646,1	12813,7	4478,9
	<i>Import</i>	1259,0	8096,4	5109,8
Hindiston		4642,9	11276,0	7511,9
	<i>Eksport</i>	3578,3	7544,4	5386,0
	<i>Import</i>	1064,6	3731,6	2125,9
Afg'oniston		11766,9	10582,5	7092,9
	<i>Eksport</i>	11727,6	10393,4	7017,5
	<i>Import</i>	39,3	189,1	75,4
Germaniya		10688,8	16097,4	6051,0
	<i>Eksport</i>	550,2	1310,6	259,0
	<i>Import</i>	10138,6	14786,8	5792,0
Yaponiya		1496,5	11940,7	4878,1
	<i>Eksport</i>	157,1	161,5	26,6
	<i>Import</i>	1339,4	11779,2	4851,5
Koreya Respublikasi		4279,3	5007,3	4679,3
	<i>Eksport</i>	10,9	264,0	11,2
	<i>Import</i>	4268,4	4743,3	4668,1



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	646868,7	129,9	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	28344,6	138,1	4,4
Dehqonobod	17512,0	104,7	2,7
Qamashi	16509,9	95,0	2,5
Qarshi	79483,4	67,6	12,3
Koson	33591,8	64,5	5,2
Kitob	29088,6	58,5	4,5
Mirishkor	10817,2	80,8	1,7
Muborak	6435,6	55,4	1,0
Nishon	110407,5	7,5 m.	17,1
Kasbi	107988,9	177,8	16,7
Ko'kdala	8789,3	2,3 m.	1,3
Chiroqchi	9252,7	109,5	1,4
Shahrisabz	10885,4	99,5	1,7
Yakkabog'	19120,5	100,4	2,9
Qarshi sh.	151708,7	2,1 m.	23,5
Shahrisabz sh.	6858,9	70,9	1,1
Boshqalar	73,7	23,3	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri **23,5 %** ulush bilan **151708,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muborak tumani **1,0 %** ulush bilan **6435,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **24,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,1 %** ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **41,9 %** ga ko'paygan va jami TSA'dagi ulushi **75,5 %** ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra, **158641,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **107054,1** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **51587,6** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 90145,9
Eksport – 64724,1
Import – 25421,8



Qozog'iston

TSA – 31385,6
Eksport – 15079,0
Import – 16306,6



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 9588,7
Eksport – 4478,9
Import – 5109,8



Belarus Respublikasi

TSA – 3871,1
Eksport – 1645,7
Import – 2225,4



Tojikiston

TSA – 16264,4
Eksport – 15584,2
Import – 680,1



Ozarbajjon

TSA – 2292,2
Eksport – 1677,4
Import – 614,8



Moldova Respublikasi

TSA – 2250,6
Eksport – 2250,6
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 1102,4
Eksport – 921,2
Import – 181,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**60,5 %**), Tojikiston (**14,6 %**) hamda Qozog'iston (**14,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **135334,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **86271,1** ming AQSH dollari, import hajmi esa **49063,6** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **206** taga yetdi va ular tomonidan **382731,2** ming AQSH dollari qiymatini hamda (2022- yilning mos davriga nisbatan **42,0 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	269461,2	382731,2	110,9	142,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	42405,5	53118,5	103,8	125,3	15,7	13,9
Ichimliklar va tamaki	789,6	589,7	176,7	74,7	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	21629,1	26905,5	149,9	124,4	8,0	7,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8503,7	75073,3	35,4	8,8 m.	3,1	19,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	772,8	82,3	68,4 m.	10,6	0,3	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	2932,8	1793,8	30,3	61,2	1,1	0,5
Sanoat tovarlari	173671,1	205815,9	123,5	118,5	64,5	53,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2181,3	4624,6	4,1 m.	2,1 m.	0,8	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	11559,1	11031,9	3,4 m.	95,4	4,3	2,9
Boshqa tovarlar	0,3	-	-	-	-	-
Xizmatlar	5015,9	3695,7	56,4	73,7	1,9	1,0


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,0 %** ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (**53,8 %**), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (**19,6 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**13,9 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga **107054,1** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,0 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, XXR, Pokiston, AQSH va Polsha kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **70,7 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	96695,1	79880,7	144,0	82,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	58723,8	64724,1	146,0	110,2	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	695,6	39032,8	172,6	56,1 m.	17	3
XXR	13451,4	28651,7	42,7	2,1 m.	4	4
Pokiston	12197,3	22432,1	72,5	183,9	6	6
Amerika Qo'shma Shtatlari	15,3	20107,7	98,6	1314,2 m.	18	7
Tojikiston	2961,2	15584,2	18,3	5,3 m.	11	5
Polsha	9329,8	15448,0	182,7	165,6	9	9
Qozog'iston	11580,1	15079,0	75,5	130,2	7	8
Eron Islom Respublikasi	15283,1	11768,6	174,3	77,0	3	11
Misir	2010,4	11637,3	136,3	5,8 m.	14	13
Italiya	723,4	11154,6	-	15,4 m.	16	10
Vetnam	2897,1	10508,7	19,3 m.	3,6 m.	12	12
Afg'oniston	10393,4	7017,5	88,6	67,5	8	14
Hindiston	7544,4	5386,0	2,1 m.	71,4	10	16
Qirg'iz Respublikasi	12813,7	4478,9	192,8	35,0	5	15
Bangladesh	-	3601,7	-	-	-	18
Moldova Respublikasi	2288,8	2250,6	126,6	98,3	13	17
Marokash	-	1941,7	-	-	-	19
Ozarbayjon	1548,7	1677,4	2,9 m.	108,3	15	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	382731,2	142,0	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	7751,0	124,7	2,0
Dehqonobod	8382,3	130,5	2,2
Qamashi	10784,8	76,3	2,8
Qarshi	67291,9	77,4	17,6
Koson	30282,5	86,7	7,9
Kitob	9276,3	86,2	2,4
Mirishkor	7361,7	75,3	1,9
Muborak	4302,7	48,1	1,1
Nishon	85607,3	39,9 m.	22,4
Kasbi	96085,4	2,6 m.	25,1
Ko'kdala	6908,8	2,4 m.	1,8
Chiroqchi	8338,3	146,1	2,2
Shahrisabz	9070,6	121,3	2,4
Yakkabog'	8099,5	85,7	2,1
Qarshi sh.	20075,9	82,3	5,3
Shahrisabz sh.	3038,5	131,0	0,8
Boshqalar	73,7	23,3	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Kasbi

96085,4

Nishon

85607,3

Qarshi

67291,9

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Shahrisabz sh.

3038,5

Muborak

4302,7

G'uzor

7751,0

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **25,1 %** bilan **96085,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,8 %** bilan **3038,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI









So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha **232865,5** ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **60,8** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **22,5** % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**88,2** %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**9,6** %) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami		190108,5	232865,5
	Ip kalava	161879,2	205324,0
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	25823,8	22245,8
	Trikotaj mato	1019,4	2413,8
	Gazlamalar	1386,1	2881,9
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari)



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	96093,9	79304,9	82,5
	Rossiya Federatsiyasi	29887,7	44276,7	148,1
	XXR	11905,1	28099,6	2,4 m.
	Polsha	8832,3	14730,0	166,8
	Misr	2010,4	11637,3	5,8 m.
	Italiya	723,4	11154,6	15,4 m.
	Vetnam	2897,1	10508,7	3,6 m.
	Eron Respublikasi	12752,9	9588,9	75,2
	Bangladesh	-	3601,7	-
	Qirg‘iz Respublikasi	9991,5	2493,9	25,0
	Qozog‘iston	2548,9	2348,3	92,1
	Moldova	2223,3	2111,9	95,0
	Marokash	-	1941,7	-
	Tojikiston	2281,5	1750,6	76,7
	Boshqa davlatlar	7960,5	9316,7	117,0




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**34,1 % – 79304,9** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**19,0 % – 44276,7** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **3695,7** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,0 %** ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **26,3 %** ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**77,7 %**), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**20,5 %**) va safarlar (turizm) (**1,8 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **264137,5** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **115,7 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**61,5 %**) sanoat tovarlari (**13,8 %**), hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**6,3 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35748,2** ming AQSH dollariga kupaydi va **264137,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1793,3** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-noyabr oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	228389,3	264137,5	83,2	115,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18814,7	16617,9	80,9	88,3	8,2	6,3
Ichimliklar va tamaki	-	33,7	-	-	-	-
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	10206,2	7206,5	79,2	70,6	4,5	2,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8629,6	10553,0	127,5	122,3	3,8	4,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1206,0	949,4	2,2 m.	78,7	0,5	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	22598,6	20351,1	100,4	90,1	9,9	7,7
Sanoat tovarlari	29916,7	36427,3	99,5	121,8	13,1	13,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	124686,2	162358,8	76,3	130,2	54,6	61,5
Turli xil tayyor buyumlar	7608,3	7846,5	137,2	103,1	3,3	3,0
Boshqa tovarlar	4219,5	-	-	-	1,9	-
Xizmatlar	503,5	1793,3	35,2	3,6 m.	0,2	0,7

2023- yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **19,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,1 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-noyabr oylarida Qashqadaryo viloyati **62** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning **84,1 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-noyabr oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	74066,9	137609,2	101,3	185,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	25245,7	25421,8	79,3	100,7	3	4
Qozog'iston	14095,2	16306,6	78,0	115,7	5	2
Turkiya	28390,3	16289,7	59,8	57,4	2	3
Latviya	137,1	15836,6	9,1	115,5 m.	20	5
Germaniya	14786,8	5792,0	145,8	39,2	4	6
Qirg'iz Respublikasi	8096,4	5109,8	6,4 m.	63,1	7	8
Yaponiya	11779,2	4851,5	8,8 m.	41,2	6	9
Koreya Respublikasi	4743,3	4668,1	111,1	98,4	9	7
Litva	1482,8	4041,8	143,2	2,7 m.	16	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	4331,7	2852,6	2,4 m.	65,9	10	13
Italiya	1866,3	2502,4	72,5	134,1	15	10
Belarus Respublikasi	6798,0	2225,4	3,3 m.	32,7	8	11
Hindiston	3731,6	2125,9	3,5 m.	57,0	11	15
Birlashgan Arab Amirligi	219,3	2122,3	28,2	9,7 m.	18	17
Kanada	2038,2	1842,8	99,8	90,4	14	14
Eron Islom Respublikasi	3246,4	1589,0	141,4	48,9	12	18
Pokiston	187,1	1463,7	54,1	7,8 m.	19	16
Ekvador	343,0	1424,0	94,8	4,1 m.	17	19
Niderlandiya	2605,4	1304,6	93,8	50,1	13	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	264137,5	115,7	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	20593,6	143,9	7,8
Dehqonobod	9129,7	88,7	3,5
Qamashi	5725,1	176,7	2,2
Qarshi	12191,5	39,7	4,6
Koson	3309,3	19,3	1,3
Kitob	19812,3	50,9	7,5
Mirishkor	3455,5	96,0	1,3
Muborak	2132,9	79,8	0,8
Nishon	24800,2	197,7	9,4
Kasbi	11903,5	49,3	4,5
Ko'kdala	1880,5	186,2	0,7
Chiroqchi	914,4	33,3	0,3
Shahrisabz	1814,8	52,4	0,7
Yakkabog'	11021,0	114,8	4,2
Qarshi sh.	131632,8	2,8 m.	49,8
Shahrisabz sh.	3820,4	51,9	1,4
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 131632,8

Nishon 24800,2

Kitob 19812,3

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Chiroqchi 914,4

Shahrisabz 1814,8

Ko'kdala 1880,5

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **49,8** % bilan **131632,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chiroqchi tumani **0,3** % bilan **914,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **162358,8** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **30,2 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **61,5 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr oylari)




2023- yil yanvar-noyabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **37672,6** ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **102464,3** ming AQSH dollari (**63,1 %**), Latviya - **15387,9** ming AQSH dollari (**9,5 %**) va Turkiya – **13238,4** ming AQSH dollari (**8,1 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **36427,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,8** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **13,8** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-noyabr oylari ulushi, % da)

25335,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 69,6 %

3949,4 ming
AQSH doll.
ulushi – 10,8 %

1376,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,8 %



XXR



Rossiya
Federasiyasi



Turkiya

1255,6 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,4 %

823,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 2,3 %



Eron Islom
Respublikasi



Hindiston




2023- yil yanvar-noyabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6510,6** ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **25335,9** ming AQSH dollari (**69,6** %), Rossiya Federasiyasi- **3949,4** ming AQSH dollari (**10,8** %) va Turkiya – **1376,1** ming AQSH dollari (**3,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1793,3** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,7** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**65,3** %), ga tegishli bo'ldi.